



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-88-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘ining hokim yordamchilari faoliyat samaradorligi tahlili yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minalash, sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumot kiritib borish belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli Farmoni va shu asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-31-sonli va 24-dekabrdagi PQ-62-sonli qarorlari asosida tumanda hokim yordamchilari faoliyati tashkil qilindi. Angor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i U.Qosimovning “2023-yil 1-chorakda hokim yordamchilarining faoliyat samardorligi tahlili to‘g‘risida”gi hisoboti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i U.Qosimovning “2023-yil 1-chorakda hokim yordamchilarining faoliyat samardorligi tahlili to‘g‘risida”gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (U.Qosimov):

- aholi muammolarini va murojaatlar bilan ishslash faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf qilishga hamda mansabdar shaxslarning mas’uliyatini oshirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazish, "xonadonbay" yurish faoliyatini samaradorligini oshirish;
- mahallalarga kelib tushgan murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning tub mohiyatiga yetib borilishiga jiddiy e'tibor qaratish;
- mahallalarni namunali mahallaga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish;
- mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'naliishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;
- doimiy daromad manbaiga ega bo'limgan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;
- mahallalardagi mavjud bo'sh ish o'rinalarini hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinaliga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- mahallalarda istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdag'i faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish;
- mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'limgan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga biriktirish;
- mahallalardagi bo'sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;
- har kuni bitta mahallaga chiqqan holda kamida o'nta xonadonga shaxsan tashrif buyurib, mavjud holatni hokim yordamchilari bilan birga o'rgangan holda aholiga amalga oshirilayotgan davlat siyosati va islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil

faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo‘sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etsin.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (U.Qosimov):

- mahallalarda hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni talab darajasida tashkil etishni nazoratga olsin;

- xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyasi tomonidan mahallalardagi hokim yordamchilari faoliyatini o‘rganish va bu haqida xalq deputatlari tuman Kengashiga 15 kun muddatda yozma axborot kiritish topshirilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (U.Qosimov)ga:

- tumandagi 36 ta mahallaga biriktirilgan hokim yordamchilarining faoliyati bilan bog‘liq har bir holatni va ular tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan ishlar bo‘yicha kunlik nazorat o‘rnatish hamda amaliy yordam berish choralarini kuchaytirish;

- o‘rganish natijasida hokim yordamchilari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli ijrosini ta’minlash borasida amaliy yordam bermagan tashkilot va idoralar rahbarlariga nisbatan qonun doirasida ta’sir choralarini ko‘rish yuzasidan tuman hokimiga asoslangan takliflar kiritib borish;

- har oy yakuni bilan hokim yordamchilari faoliyati o‘rganilib, eng past ko‘rsatkichga ega hokim yordamchisining ish faoliyatini tahlil qilib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Amalga oshirilgan ishlar natijadorligi yuzasidan **har chorak yakuni** bilan tuman Kengashiga yozma hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman sektor rahbarlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov